

YAQINIYNING “O‘Q VA YOY” MUNOZARASIDA FALSAFIY MUSHOHADA VA DAVR

Avazova Sevinch Pulat qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

2-bosqich magistranti

sevinchavazova785@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yaqiniyning “O‘q va yoy munozarasi” mazmun-mohiyati, asar badiiyati haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu munozaraning badiiy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: munozara janri, o‘q, yoy, davr, badiiyat.

Annotation: In this article, the scientific research has been conducted on the content of Yaqini's " The debate between Arrow and Bow " and the artistry of the work. The artistic significance of this discussion is highlighted.

Key words: discussion genre, arrow, bow, period, artistry.

Shoir Yaqiniyning ham Ahmadiy kabi birgina munozarasi bizgacha yetib kelgan. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasining birinchi va ikkinchi majlislarida alohida-alohida ikki shaxs- ikki Yaqiniy haqida ma’lumot uchraydi. “O‘q va yoy” munozarasining mazmuniga tayanib ko‘pgina adabiyotshunos olimlar asar muallifi birinchi majlisda zikr qilingan Yaqiniy bo‘lsa kerak, deyishadi: “Mavlono Yaqiniy tundroq mashrabliq kishi erdi. Turkchasidin bu matlani ko‘p mubohatlar bila o‘qur erdikim:

Ohkim, jonimga yetdim yori nodon ilkidin,

Dud-u faryod ul jafochi ofati jon ilgidin.

Ammo forsiyidin bu matlayi yomon voqe bo‘lmaydurkim:

Subhekim dam bemehr nazad yak nafas tun,

Nahleki bor naxo‘rad az o‘ hech kas tun.

Oxir damida beadabona so‘zlaridin tavba qilib, aqli saloh tariqa bilan kechti.ummedkim, ma’fu bo‘lmish bo‘lg‘ay.

Qabri darai Dubororondadur”¹

“Sozlar munozarasi” kabi “O‘q va yoy munozarasi”ning XIV asrda ko‘chirilgan yaqona nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi. Yaqiniy “O‘q va Yoy” munozarasida o‘qni to‘g‘rilik, yoyni egrilik simvoli darajasiga ko‘taradi va o‘zaro qirg‘in urushlarni, jabr-zulmni qoralaydi². “O‘q va yoy” munozarasida “hayotda uchrab turadigan nohaqlik, adolatsizliklar, yaxshilarning beqadr va e‘tiborsizligi, o‘ziga yarasha munosabatga ega bo‘lolmasligi, aksincha, qilmishi yoydek egri, yuqori martabaga noloyiq kimsalarning izzatda ekanligi majoziy tarzda ifodalanadi. Ana shu fikrlar O‘q va Yoy vositasida bayon etiladi³.

Munozara avvalida Yaqiniy o‘z asarining yozilish tarixiga to‘xtalib o‘tadi. Ya’ni asar bir kuni xo‘blar ichra nom chiqargan bir bo‘z yigitning yoy va kamon olib, otiga minib yo‘lga tushishi, buni ko‘rgan muallif yigitni goh quyoshga, goh yulduzga o‘xshatib hayratlanishi, otning ham yer-u ko‘kda o‘xshashi yo‘qligini e‘tirof etishi, ul yigit bilan suhbatdan so‘ng esa shoir ko‘nglidan bu kunga qadar hech kim turk va fors tillarining gavharlarini biriktirib “O‘q-Yoyning orasida munozara tartib qilmagani” kechadi-yu, shuning uchun ham bu ishga o‘zi kirishmoqchiligi haqidagi xabar bilan boshlanadi. So‘ngra haqiqiy munozara bayon etiladi. Unga ko‘ra bir necha bahodir yigitlar bir go‘shada bazm tuzib o‘tirganlarida Turkiston tomonlardan qaddi dol bir qariya bilan sarvmisol yigit kelib qoladi. Mezbonlar qariyaga izzat yuzasidan o‘ng tarafdin, yigitga chap tomondan joy ko‘rsatishadi. Biroq yigit chol uchun ko‘rsatilgan joyga o‘tirib oladi. Bundan nafsli ozorlangan qariya yigitga “ne sababdan kattani hurmat qilmading, bolam?” degan mazmunda savol yo‘llaydi-yu, bahs-munozaraga kirishib ketiladi. Yigit o‘zini o‘qqa, qariyani yoyga o‘xshatib kamsitadi.

Shu o‘rinda yana bir bora ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, munozaraning eng muhim janr xususiyatlaridan biri o‘z ustunligini bildirish uchun dalil keltirishdir.

№	Yigit (O‘q) ning dalillari:	Qariya (Yoy) ning dalillari:
1.	Chingizxon davrida dushmanga hujum qilishda hammadan ilgari	Bu davrda mening loshimni ko‘tara oladigan kimsa yo‘q

¹ A.Navoiy. Majolis un-nafois. -Toshkent, 1948

² Muborak maktublar. -Toshkent: G‘.G‘ulom, 1987

³ T.Xo‘jayev. XV asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va folklor. Toshkent, 1996.

2.	Yusuf Amiriy meni ulug‘lagan	Tahammul bobida mendan o‘tadigani yo‘q, yoychilar asrlar mobaynida urinsalar-da, ularga ichimni ochmadim
3.	Qayda bo‘lsam “qolg‘onning ol qonini oqizib, yuziga o‘ta chiqormen	Qur‘oni Karimdagi “Qoba vo qavsayn” oyati men haqimda
4.	Men qil yorarmen	Qosim Anvor meni sendan afzal ko‘rib nazm bitgan
5.	Oshiqlarning ko‘nglini ovlab, raqiblarni quvlaydiga qushmen	Mavlono Muhammad Mag‘ribiy mening vasfimda “Jomi jahonnomiy”ni tartib qilgan
6.	Qayda qanotim yozsam qochayotgan odamning arvohi uchadi	Maloikalardek umrimning avvalidan oxiroga qadar rukudamen
7.	Tug‘dorlarga dala-tuzlarda yo‘liqsam, mening vahmimdin yozilarni bulg‘ar	Yaxshi-yomonga birdek quloq tutib niyoz ko‘rsatamen
8.	Jayron ko‘zli mog‘il, chin-u xitoylarning qo‘liga tikilsam ham qornig‘a kirurmen	Meni mahbubalar qoshiga o‘xshatishib oy deydilar
9.	Oshiqlarning joniga oro kirarmen	Garchi uncha bahodirlik, kuch-qudrat bobida har kimdan “qurumsoqroq” bo‘lsam-da o‘zimni qurbon qilayin deyman
10.	Naydek kimga qadalsam mening zahrimdin jon eltmas	Kim men bilan saharhezlik qilsa, dunyo-yu oxiratda nasibali bo‘ladi
11.	Har yerda tarozu bo‘lsam, meni tortay deb kishilar o‘z jonlarini tortadilar	Pahlavon Mahmud Sabzavoriyga qadrdonmen
12.	Xo‘ja Hofiz Sheroziy meni “mustajob ul-da’vatlarning duosi”ga deydi	
13.	Xo‘ja Kamol meni “norvai qomatliq sim andomlar qaddina” o‘xshatgan.	
14.	Xo‘ja Salmon, Sakkokiy, mavlono Lutfiyalarlar mening munosib holimga tashbehlar nazm etishgan	

Munozaraning eng muhim janr xususiyatlaridan biri bu hakam vositasida bahs g‘olibi aniqlanishidir. “O‘q va Yoy”da ham O‘qning maqtanishlari-yu, yoy sha’nini yerga chaplayverishiga chidolmagan qariya yoy himoya istab Girish yoniga boradi, undan munozaraga hakamlilik qilishini so‘raydi. Girish esa Zihgirga men barlos bo‘lsam, sen tarxonsan deya quyidagicha, yoy foydasiga hukm chiqarib beradi: “ani (O‘qni) andoq iroq tashladikim, Yo(y)ning to‘rini to‘tiyo qilib topmag‘ay”. Munozara

“O‘q alarni (Girish bilan Zihgirni) o‘zidek rost sog‘inib borg‘och Girish og‘zig‘a andoq teptikim, o‘qning og‘zi to‘la qon bo‘lub, qaro yerga kirib ketishi” bilan yechim topadi. Aksariyat munozaralarda muallif o‘z pozitsiyasidan kelib chiqqan holda g‘alaba qilgan shaxs-narsa tomonida bo‘ladi. Biroq Yaqiniy munozarasida muallif to‘g‘riligi uchun Girishdan uzoq tushgan, qaro yerga kirgan mag‘lub O‘q tarafida bo‘ladi. Yuqoridagi “Dalillar jadvali” mizdagi dalillar sonidan ham muallif pozitsiyasi o‘z-o‘zidan aniq bo‘lib turibdi. Yaqiniy o‘zi ham yoydek egri bo‘lmagani, o‘qdek to‘g‘riligi uchun “davrnig kaj tablaridan” yiroq tushganini afsus bilan tan oladi. Munozara fors-u turkiy til guharlaridan tizilgan ushbu asarni o‘qigan o‘quvchilar

Yaqiniyning ravoni shod qilg‘ay,
Duoyi xayr bilan yod qilg‘ay,
degan umid bilan o‘z poyoniga yetadi.

Bilamizki, tovushlar ohangdorligiga, asosan, bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan ohangdorlik san‘atiga **alliteratsiya** deyiladi. Munozarada keltirilgan “Agar Yazdonbaxshi changiga tushsang, **bo‘g‘achi birla bo‘g‘zungni bo‘g‘or**” gapida muallif alliteratsiya san‘atidan ustalik bilan foydalangan. Bundan tashqari bo‘g‘achi so‘zining o‘zi bo‘g‘ish uchun mo‘ljallangan ish qurolining nomi sifatida ajoyib topilma bo‘lgan.

Arabchada chiroyli dalillash ma‘nosini anglatuvchi **husni ta‘lil** san‘ati qo‘llanganda shoir o‘zi aytayotgan fikr (tasvir, holat) dalili uchun shunday asos keltiradiki, bu badiiy dalil Kishida estetik zavq uyg‘otadi. Husni ta‘lil san‘atining ajoyib namunasi sifatida munozaradagi o‘q, ya‘ni yigit tilidan yoyga (chol)ga aytilgan: “O‘ldurur - **kishilardek bo‘yununga chirish solur**” ta‘nasini keltirsak bo‘ladi. Bunda yoyning ikki uchini bosh deb, ularni birlashtirib turgan ipni esa jinoyatchilarni o‘ldirish uchun qo‘llaniladigan jazo- bo‘yinga chirish solish sifatida nihoyatda go‘zal dalillaydi.

Ba‘zan munozaradagi so‘zlar o‘zida ham ma‘noviy, ham badiiy jihatdan yetukligidan aqlimiz shoshib qoladi. Misol tariqasida “**sening ikki boshing bordurkim**, mening yuzumda munungdek da‘volar qilursen” gapini olaylik. Bunda yoyning ikki uchi ikki boshga o‘xshatilib tashbeh san‘atining durdona namunasi

yaratilsa, ma'noviy jihatdan esa o'q tilidan yoyni ikki boshli- ikki yuzlilik, ya'ni ikkiyuzlamachilikda (shuning uchun ham menga munungdek da'volar qilursen) ayblab, bir o'q bilan ikki quyon o'ldiriladi.

Munozarada o'qning faxriyasi sifatida kelgan quyidagi bir gapni esa ikki ma'noda anglash mumkin: **“Goho inoyattin alifdek oshiqning joni orasiga kirarmen”**. Birinchidan, yor hajrida doimo o'rtanavergan oshiqning o'limiga sabab bo'lib, uni bu iztiroblardan qutqargan vosita sifatida inoyat-u rahm-shavqat yuzasidan uning joniga oro kirmoq bo'lsa; ikkinchidan, o'q olib kelgan, ya'ni uning uchiga ilib yuborilgan yor nomasi hijron ko'yida sargardon oshiq yuragiga taskin bo'lishi, uning joniga oro kirishi.

Yoy tilidan aytilgan quyidagi gap ham e'tiborimizni o'ziga tortdi: **“Men tahammul bobida aningdek turmenkim, yoychilar qarnlar singirimni tortadilar, ichimda asrab kishiga dardi hol qilmadim”**. Yoy o'zining tahammulda tengsizligidan maqtanyapti. Xo'sh, tahammul nima degani? Tahammulning homila bilan o'zagi bir ekanligini bilarmidingiz? Tahammul sabrdan ko'ra yuksakroq tushuncha bo'lib ko'tarimlilik ma'nosida keladi (homilador ayol ham vujudida bola ko'tarib yuradi). Bu gap orqali yoy men shunchalik dardga ko'tarimlimanki, chidamlimanki, yoychilar asrlar davomida singirimni (ipimni) tortib ichimga jo bo'lgan dardlarimni bilishga urinsalar-da, ularga dardi hol qilmadim (balki yoychilarni ular yoy ichidagi dardlarni ko'tara olmaydi, deb ayagandir. Bu gapning yoy tilidan aytilgan faxriya ekanligi bizga gapni shunday tushunishimizga imkon bersa kerak)

O'q tilidan aytilgan **“Yana nayshakarkim, imon halovatining totliq so'zidindur**, mening birla bir yerda butib ulg'ayibdur” gapini ham tahlilga tortmoqchimiz. Nayshakarga, ya'ni shakarqamishga nisbatan nima sababdan imon halovatining totliq so'zi deyilgan, savoliga javob topmoqchimiz. Ochig'ini aytganda, ushbu gap bizga Jaloliddin Rumi hazratlarining

Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay,

Ayriliqlardin shikoyat aylagay,

baytini yodga soldi. Nay - ko'pgina adabiy asarlarda aslidan ajralgan ruh timsoli, oshiq qalb ramzi sifatida keladi. Nay qamishdan kesilib, nay holiga keladi-yu, ayriliq haqida kuylaydi. Ayriliq deganda, albatta, asl olamdan ayrilish tushuniladi. Nay asl vatani bo'lgan qamishzorini sog'insa, "asl vatan"dan, ruhoniyat dunyosidan ayrilib, zaminga tushgan inson ham to o'z asl maskaniga qaytgunicha fig'on chekib, nola qiladi. Shu sabab ham nayshakar imon halovatining totliq so'zi deya ulug'lanyapti. Nay haqida yana bir qiziqarli rivoyatni keltirib o'tmoqchimiz:

"Shunday bir naql bor: hazrati Muhammad (s.a.v.) o'z takomilining cho'qqisi bo'lmish Me'rojga yuksalganda ko'plab sirlardan ogoh bo'lgan edi. Bir kuni shu haqda tafakkur qilib o'tirganlarida yonlariga Hazrati Ali kirib kelib, "Yo, Rasululloh, bunchalik mahzunligingiz sababi nedir, biror tashvishingiz bormi?" deb so'rabdi. Rasuli akram "Yo'q, menga ayon qilingan sirlar haqida o'ylab o'tirgan edim" debdi. Hazrati Ali "Menga ham ozroq aytib bering, voqif bo'lmoq istayman" debdi. "Ko'tara olmaysan, bardoshing yetmaydi, Ali!" debdi Payg'ambar alayhissalom. Ammo uning ko'zlaridagi ishtiyoqni ko'rib, ilohiy ishq sirini hazrati Aliga aytibdi. U shunday sir ekanki, zalvariga Hazrati Ali bardosh bera olmabdi. Makkai mukarrama ko'chalariga chiqib hayqirmoq istabdi. Hammani bu sirdan voqif qilmaguncha ichidagi olovni so'ndirishning iloji yo'qdek tuyulibdi. Ammo uni boshqalarga oshkor qilmaslikka so'z bergani uchun shahar chetidagi tashlandiq bir quduqqa aytibdi. Quduq ham sirning yukiga dosh berolmay jo'shib-toshibdi. Atrofdagi ko'l paydo bo'libdi. Ko'lda qamishlar o'sib chiqibdi. Bir cho'pon qamishni kesib nay yasabdi. Chalsa shunday bir kuy taralibdiki, atrofdagi jonzorlar, o'simliklar mast bo'lib qolibdi. Bir kuni Hazrati Muhammad (s.a.v.) Hazrati Ali bilan birga cho'lda ketayotssa, cho'pon chalayotgan kuyi eshitib to'xtab qolibdi. Aliga qarab, "Sen sirni birovga aytganmiding?" deb so'rabdi. Hazrati Ali bo'lgan voqeani aytib beribdi. Payg'ambar alayhissalom kuy taralayotgan tomonga boqib, "Bu qamish qiyomatga qadar mening sirimni tarannum qiladi, ammo qalbi ochiq, pok va komil insonlarga bu sirni anglagaylar" deb marhamat qilibdi. So'fiylar nayni shuning uchun sir tashuvchi – sirbon deydilar⁴.

⁴ M.Yo'ldoshev. "Shams va Mavlono" ikki bahr tutashuvi qissasi. Tafakkur. 2023, №3

Navoiyni, Forobiyni, Ibn Sino-yu Amir Temur kabi biror yaxshiligi bilan nom chiqargan odamlarni hamma o‘zini deb bilgisi keladi. Inson yuragida yaxshilar safida, ular davrasida bo‘lish, o‘zini yaxshilar bilan birga deb his qilish istagi mavjud. Insonga xos ushbu hissiyot munozarada O‘qqa ko‘chgan. Shuning uchun ham u “imom halovatining totliq so‘zi” deya ulug‘langan nayshakar “mening birla bir yerda butib ulg‘ayibdur” deya faxrlanadi.

O‘q **“base har yerda tarozu bo‘lsam, meni tortay degan kishilar jon tortarlar”** deya maqtanadi. Ushbu gapi orqali insondagi nafs balosi qay darajada bo‘la olishi mumkinligi, ba‘zi holatlarda pul jigardan ham afzal tuyilishiga oid bir insoniy kamchilik bildirmaygina tanqid qilingan.

Ushbu munozarada ham yumor, jonli so‘zlashuvga xos iboralar, kesatiq va kinoyalar keng qo‘llanilgan. Xususan, o‘qning qator-qator “dalillarini eshitgan yoy “bag‘ri qotguncha kuladi”. Xalqimiz orasida “Ichagi uzilguncha kuldi”, “kulaverib ichagi uzildi” jumalari ishlatiladi. “Bag‘ri qotguncha kulmoq” ham, asosan, shu mazmunda. Ammo unda kesatiq, mazax ma‘nosi yetakchi”⁵.

Umuman olganda, Yaqiniy hol-u ahvoli, shoir yashagan davrning bevafoqliklari majoziy tarzda yoritib berilgan “O‘q va Yoy” munozarasi mustaqil adabiy asar shaklidagi o‘zbek munozarachiligi taraqqiyotiga munosib hissa sifatida qo‘shilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muborak maktublar - Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 1987
2. Abdurahmonova O. I. Nishotiy munozaralarining matniy tahlili – Toshkent, 2021
3. Xo‘jayev T. R. XV asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va folklor – Toshkent, 1996
4. M.Yo‘ldoshev. “Shams va Mavlono” ikki bahr tutashuvi qissasi. Tafakkur. 2023, №3

⁵ T.Xo‘jayev. XV asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va folklor. Toshkent, 1996.